

“ZUMRAD VA QIMMAT” HAMDA “HEUNGBU VA NOLBU” ERTAKLARINING SYUJET-KOMPOZITSION QIYOSI

Azimova Parizod Azamat qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Saidxonova Nazokatxon Kamolxon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Filologiya va tillarni

o'qitish (koreys tili) 4 bosqich talabasi

Annatsiya Mazkur maqolada o'zbek xalq ertagi “**Zumrad va Qimmat**” hamda koreys xalq ertagi “**Heungbu va Nolbu**”ning axloqiy-g'oyaviy mazmuni qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ertaklarning syujet qurilishi, konflikt tizimi, qahramonlar talqini va tarbiyaviy ahamiyati o'rganilib, ulardagi umumiy hamda milliy o'ziga xos jihatlar aniqlangan. Tahlil natijalariga ko'ra, har ikki ertakda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi, adolatning qaror topishi va ijobiy qahramonning axloqiy ustunligi asosiy g'oyaviy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'zbek ertagida mehnatsevarlik va sabr-toqat, koreys ertagida esa saxovat, oilaviy mas'uliyat va insoniylik qadriyatlari ustuvor ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari xalq ertaklarining milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi muhim folklor manbasi ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qiyosiy folklorshunoslik, xalq ertaklari, axloqiy-g'oyaviy mazmun, “Zumrad va Qimmat”, “Heungbu va Nolbu”, milliy mentalitet, folklor poetikasi, tarbiyaviy ahamiyat, didaktika, syujet, fantastika, obraz

“Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklari syujet qurilishi jihatidan o'xshash syujet modeliga ega folklor namunalaridan hisoblanadi. Ikkala syujetda voqealar ijobiy va salbiy qahramonlar qarama-qarshiligi asosida rivojlanadi. Syujet markazida axloqiy tanlov va insoniy fazilatlarining sinovdan o'tishi masalasi turadi.

“Zumrad va Qimmat” ertagida konflikt o'gay ona va uning qizi tomonidan Zumradga nisbatan adolatsiz munosabat asosida shakllanadi. Zumrad og'ir mehnat va qiyinchiliklarga qaramay, sabr-toqat hamda mehribonlik fazilatlarini saqlab qoladi. Syujet davomida aynan shu fazilatlar uning mukofotlanishiga sabab bo'ladi. Qimmat esa dangasalik va ochko'zligi tufayli jazolanadi. Mazkur ertakda sabrli va mehnatsevar qahramon obrazining ideallashtirilishi o'zbek madaniy muhitida halol mehnat va insoniy fazilatlarining ustuvorligi bilan izohlanadi.³⁰

“Heungbu va Nolbu” ertagida esa konflikt aka-ukalar o'rtasidagi qarama-qarshilik orqali rivojlanadi. Heungbu kambag'al bo'lishiga qaramay, saxovat va mehr-oqibatni

³⁰ Мирзаев Т. Ўзбек халқ эртақлари поэтикаси. — Тошкент: Фан, 1979. — Б. 108.

yo‘qotmaydi. Nolbu esa boy bo‘lsa-da, ochko‘z va shafqatsiz inson sifatida tasvirlanadi. Syujet yakunida Heungbuning insoniy fazilatlarini mukofotlansa, Nolbuning manmanligi va ochko‘zligi jazolanadi.³¹

Har ikki ertakda ochko‘z va manman qahramonning jazolanishi orqali axloqiy mezonlar tizimi ifodalangan. Tahlil davomida adolat g‘oyasi syujet yakunida asosiy yechim sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Biroq ertaklarning konflikt tizimida ayrim farqlar ham mavjud. “Zumrad va Qimmat” ertagida oilaviy zulm va o‘gay ona motivi markaziy o‘rin egallasa, “Heungbu va Nolbu” ertagida aka-uka munosabatlariga alohida e‘tibor berilishi koreys madaniy an‘analarida oilaviy qadriyatlarini yuqori baholashi bilan bog‘liq ekanligi kuzatiladi. Ayniqsa, konfutsiychilik ta‘siri ertakdagi axloqiy qarashlarda yaqqol seziladi.

Syujet kompozitsiyasida ham muayyan o‘xshashlik kuzatiladi. Har ikkala ertakda voqealar bosqichma-bosqich rivojlanib, kulminatsiya qismida qahramonning axloqiy mohiyati to‘liq ochiladi. Ayniqsa, ijobiy qahramonning og‘ir vaziyatda ham insoniy fazilatlarini saqlab qolishi syujetning asosiy g‘oyaviy tayanchini tashkil etadi.

Tahlil natijasidan ma‘lum bo‘ldiki, “Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklarida umumiy axloqiy g‘oyalar mavjud bo‘lsa-da, ularning badiiy talqinida milliy mentalitet bilan bog‘liq farqlar yaqqol seziladi. O‘zbek ertagida mehnatsevarlik va sabr-toqat ustuvor ahamiyat kasb etsa, koreys ertagida saxovat va oilaviy munosabatlarga ko‘proq e‘tibor qaratiladi.

“Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklarida qahramonlar tizimining qiyosiy tahlili

“Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklarida qahramonlar tizimi syujetning g‘oyaviy mazmunini ochishda markaziy o‘rin egallaydi. Har ikkala ertakda ham obrazlar aniq axloqiy mezon asosida qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lib, bu holat axloqiy ideallar va yovuzlik haqidagi qarashlarini ifodalaydi.

Zumrad va Heungbu obrazlari ijobiy qahramon sifatida tasvirlanadi. Ularni birlashtirib turuvchi asosiy jihat — sabr-toqat va insoniylikdir. Har ikkala qahramon ham og‘ir hayotiy sharoitda yashaydi, biroq ular mehribonlik va halollik kabi fazilatlaridan voz kechmaydi. Shu jihatdan qaralganda, ertaklarda ijobiy qahramonning ma‘naviy ustunligi moddiy boylikdan yuqori qo‘yiladi.

Biroq ushbu obrazlar talqinida ayrim milliy farqlar ham kuzatiladi. Zumrad obrazi ko‘proq mehnatsevar va chidamli qiz sifatida tasvirlansa, Heungbu obrazi saxovatli va oilaparvar inson sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur farq ikki madaniy modeldagi axloqiy ideallarining ustuvor jihatlar bilan bog‘liqdir.

Qimmat va Nolbu obrazlari esa salbiy qahramon sifatida syujet konfliktini kuchaytiradi. Ularning ochko‘zligi, manmanligi va boshqalarga nisbatan shafqatsizligi

³¹ 조동일. 한국문학통사. — 서울: 지식산업사, 2005. — 156 쪽.

ertak davomida keskin qoralanadi. Ayniqsa, salbiy qahramonlarning faqat boylik yoki manfaatni o‘ylashi ularning mag‘lubiyatiga sabab bo‘ladi.

Qiyoslash natijasida yana bir sezilarli jihat aniqlandi: o‘zbek ertagida salbiy obraz ko‘proq oilaviy muhit orqali shakllansa, koreys ertagida esa ijtimoiy va maishiy munosabatlar bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. “Zumrad va Qimmat” ertagida o‘gay ona obrazi konfliktning markaziy qismi bo‘lsa, “Heungbu va Nolbu” ertagida aka-uka o‘rtasidagi munosabat syujet markaziga chiqadi.

Har ikkala ertakda yordamchi obrazlar ham muhim vazifani bajaradi. Ular ijobiy qahramonning insoniy fazilatlarini ochishga xizmat qiladi. O‘zbek ertagida sehrli va mo‘jizaviy unsurlar yordamchi vazifani bajarsa, koreys ertagida voqealar ko‘proq hayotiy asosda rivojlanadi. Shu sababli “Heungbu va Nolbu” ertagida maishiy realizm unsurlari kuchliroq seziladi.

Kuzatishlar natijasiga tayangan holda, qahramonlar tizimi orqali har ikki xalq ertaklarida axloqiy ideal modeli yaratilgan. Ijobiy qahramonning mukofotlanishi va salbiy obrazning jazolanishi xalqning adolat haqidagi estetik qarashlarini ifodalaydi.

“Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklarida axloqiy-g‘oyaviy mazmun qiyosi

Xalq ertaklarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning chuqur axloqiy mazmunga ega ekanligidir. Ertaklar orqali ezgulik va yovuzlik haqidagi axloqiy tasavvurlar, halollik va ochko‘zlik, sabr-toqat va manmanlik haqidagi qarashlari badiiy shaklda ifodalanadi.³² “Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklari ham ana shunday didaktik mohiyatga ega folklor namunalari hisoblanadi.

Shu tariqa, ertaklarning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi ezgulikning g‘alabasi va yomonlikning jazolanishiga qaratilgan. Ijobiy qahramonlarning sabrli, mehribon va halol inson sifatida tasvirlanishi syujet davomida mukofotlanadi. Salbiy obrazlarning ochko‘zligi va shafqatsizligi esa ularning mag‘lubiyatiga olib keladi. Shu orqali Shu orqali jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarini ifodalanadi.

“Zumrad va Qimmat” ertagida mehnatsevarlik va kamtarlik yetakchi axloqiy fazilat sifatida talqin qilinadi. Zumradning barcha sinovlarda sabrli va muloyim bo‘lib qolishi uning ichki pokligini ochib beradi. Qimmat obrazi orqali esa dangasalik va erkalik salbiy xususiyat sifatida qoralanadi.³³

“Heungbu va Nolbu” ertagida esa saxovat va insoniy mehr-oqibat markaziy g‘oyaviy asosni tashkil etadi. Heungbuning qaldirg‘ochga yordam berishi uning insonparvarligini namoyon etsa, Nolbuning boylikka hirs qo‘yishi salbiy xarakterini ochib beradi. Shu jihatdan qaralganda, koreys ertagida insoniylik va oilaviy mas‘uliyat masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.³⁴

³² Пропп В. Я. Морфология сказки. — Москва: Наука, 1986. — С. 74.

³³ Мирзаев Т. Ўзбек халқ эртақлари поэтикаси. — Тошкент: Фан, 1979. — Б. 114.

³⁴ 조동일. 한국문학통사. — 서울: 지식산업사, 2005. — 163 쪽.

Qiyosiy tahlil davomida konfliktning shakllanishida ham muayyan farqlar kuzatildi. “Zumrad va Qimmat” ertagida oilaviy adolatsizlik va o‘gay ona munosabati markaziy o‘ringa chiqsa, “Heungbu va Nolbu” ertagida aka-uka o‘rtasidagi axloqiy qarama-qarshilik syujetning asosiy tayanchini tashkil etadi. Mazkur farq ikki madaniy an‘ananing oilaviy munosabatlarga oid qarashlari bilan bog‘liqdir.

Farqli jihatlardan yana biri shundaki, o‘zbek xalq ertaklarida sehrli va fantastik motivlar nisbatan faolroq uchrasa, koreys ertaklarida axloqiy-tarbiyaviy mazmun ustunroq ekanligi kuzatiladi.

Solishtirish natijasida har ikki xalq ertaklarida yaxshilikning yomonlik ustidan g‘alaba qilishi, halol insonning mukofotlanishi hamda adolatning qaror topishi asosiy g‘oyaviy umumiyliklardan biri ekanligi aniqlandi.

Har ikkala ertakda mukofot va jazo prinsipi muhim poetik vazifa bajaradi. Ijobiy qahramonning mukofotlanishi va salbiy obrazning jazolanishi xalqning adolat haqidagi ideal qarashlarini ifodalaydi. Ayniqsa, axloqiy poklikning moddiy boylikdan ustun qo‘yilishi ertaklarning umumiy g‘oyaviy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Qiyosiy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, “Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklarining axloqiy-g‘oyaviy mazmunida umumiy jihatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning badiiy talqini har bir xalqning milliy mentaliteti va qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi. O‘zbek ertagida sabr-toqat va mehnatga urg‘u berilsa, koreys ertagida saxovat va insoniy burch masalasi ustunlik qiladi.

3.2. Qiyosiy tahlil natijalari: umumiylik va milliy o‘ziga xosliklar

O‘zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat” hamda koreys xalq ertagi “Heungbu va Nolbu”ni qiyosiy tahlil qilish natijasida ular o‘rtasida bir qator umumiy va farqli jihatlar mavjudligi aniqlandi. Qiyoslanayotgan ertaklarda axloqiy mezonlar, ideal qahramon modeli va ma‘naviy qadriyatlarni badiiy shaklda ifodalovchi muhim folklor namunalaridan hisoblanadi.

Ertaklarning tarbiyaviy modelini qiyosiy tahlil qilish natijasida umumiy axloqiy yo‘nalish mavjudligi aniqlandi. Har ikki ertakda ijobiy qahramon jamiyatdagi mavqei yoki moddiy holati bilan emas, balki ma‘naviy fazilatlarini orqali baholanadi. Biroq ushbu idealning ifodalanish shakli milliy muhit ta‘sirida turlicha namoyon bo‘ladi.

Qiyoslash davomida syujet qurilishida umumiy poetik model kuzatildi. Har ikkala ertakda ijobiy qahramon turli qiyinchilik va sinovlarga duch keladi, biroq insoniy fazilatlarini saqlab qoladi. Syujet yakunida esa ezgulik g‘alaba qozonib, salbiy qahramon jazolanadi. Bu holat folklor poetikasiga xos adolat tamoyilini ifodalaydi.

Solishtirma o‘rganish davomida, o‘zbek va koreys xalq ertaklari o‘rtasida syujet va g‘oyaviy jihatdan ko‘plab o‘xshashliklar mavjud. Biroq har bir folklor an‘anasida milliy mentalitet, urf-odat va tarixiy qarashlar o‘ziga xos tarzda ifodalangan.

O‘zbek xalq ertaklarida mardlik, sabr-to‘qat va mehnatsevarlik motivlari ustunlik qilsa, koreys xalq ertaklarida oilaviy sadoqat, kattalarga hurmat va axloqiy burch masalalariga ko‘proq e‘tibor qaratilishi kuzatiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ertaklarda ijobiy qahramonning axloqiy ustunligi asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Zumrad va Heungbu obrazlari kambag‘al yoki og‘ir sharoitda yashashiga qaramay, sabr-to‘qat, mehribonlik va halollik kabi fazilatlarini yo‘qotmaydi. Shu orqali ideal qahramon modeli haqidagi qarashlari ifodalanadi.

Biroq qahramon talqinida milliy o‘ziga xoslik ham mavjud. Zumrad obrazi orqali o‘zbek xalqining mehnatsevarlik va chidamlilik haqidagi qarashlari yoritilsa, Heungbu obrazida saxovat, oilaparvarlik va insoniy burch tushunchalari ustunlik qiladi. Ushbu tafovut ikki madaniy muhitning tarixiy-madaniy qadriyatlari bilan izohlanadi.

Konflikt tizimida ham ayrim farqlar kuzatiladi. “Zumrad va Qimmat” ertagida o‘gay ona va oila ichidagi adolatsizlik syujetning asosiy manbai bo‘lsa, “Heungbu va Nolbu” ertagida aka-uka o‘rtasidagi axloqiy qarama-qarshilik markaziy o‘ringa chiqadi. Shu sababli koreys ertagida oilaviy mas‘uliyat va qarindoshlik munosabatlari axloqiy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ifodalanadi..

Ertaklarning poetik qurilishida fantastik va maishiy unsurlar nisbatida ham farq mavjud. O‘zbek ertagida mo‘jizaviy va fantastik motivlar faolroq qo‘llanilgan bo‘lsa, koreys ertagida maishiy-realistik tasvirlar nisbatan ustunroq kuzatiladi. Bu holat har ikki xalq folkloridagi badiiy tafakkur xususiyatlarini aks ettiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qiyoslanayotgan ertaklar faqat syujet o‘xshashligi bilan emas, balki xalqning ijtimoiy ideallari va estetik qarashlarini aks ettirish mexanizmi bilan ham o‘zaro yaqin hisoblanadi. Shu bilan birga, obrazlar tizimi va konflikt tabiatida milliy o‘ziga xoslik yaqqol kuzatiladi.

Quyidagi jadvalda ertaklarning umumiy va farqli jihatlari qisqacha umumlashtirildi:

Qiyosiy jihatlar	“Zumrad va Qimmat”	“Heungbu va Nolbu”
Asosiy konflikt	O‘gay ona zulmi	Aka-uka qarama-qarshiligi
Yetakchi g‘oya	Mehnat va sabr qadri	Saxovat va insoniylik
Ijobiy qahramon	Mehnatsevar va sabrli	Mehribon va oilaparvar
Salbiy qahramon	Dangasa va ochko‘z	Manman va shafqatsiz
Syujet xususiyati	Fantastik unsurlar kuchli	Maishiy realizm kuchli
Poetik xususiyat	Folklor formulalari va mubolag‘a	Axloqiy konflikt va realistik tasvir
Yakun	Ezgulikning g‘alabasi	Axloqiy adolat qaror topishi

1-jadval. “Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklarining qiyosiy xususiyatlari

Umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikkala ertak umumiy axloqiy g'oyalar asosida qurilgan bo'lsa-da, ularning badiiy ifodasida milliy mentalitet bilan bog'liq farqlar mavjud. Ayniqsa, o'zbek ertagida sabr-toqat va mehnatga urg'u berilsa, koreys ertagida insoniy burch va oilaviy munosabatlarga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Qiyosiy tahlil davomida yana bir e'tiborga molik jihat aniqlandi: har ikkala ertakda xalqning axloqiy ideallari oddiy xalq vakillari obrazi orqali ifodalangan. Bu esa xalqona estetik tafakkurda insonning qadri uning boyligi bilan emas, balki ma'naviy fazilatlarini bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Ertaklarning poetik va madaniy xususiyatlari

“Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklari tarixiy-madaniy tajribasi va estetik qarashlarini aks ettiruvchi yetakchi folklor namunalaridan hisoblanadi. Ushbu ertaklarda nafaqat axloqiy g'oyalar, balki xalqning tarixiy tafakkuri, oilaviy munosabatlari va madaniy qadriyatlarini ham badiiy shaklda ifodalangan.

Qiyosiy tahlil davomida ertaklarning poetik qurilishida milliy badiiy tafakkur yetakchi o'rin egallashi aniqlandi. Syujetning sodda va izchil rivojlanishi, ijobiy hamda salbiy qahramonlarning keskin qarama-qarshi qo'yilishi ertaklarning ta'sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, mukofot va jazo prinsipi xalqning adolat haqidagi estetik qarashlarini ifodalashga xizmat qiladi.

O'zbek xalq ertagida fantastik unsurlar syujet rivojida faol qatnashadi. Sehrli motivlar va sinovlar qahramonning ichki fazilatlarini ochishga yordam beradi. Koreys ertagida esa maishiy va hayotiy tasvirlar kuchliroq bo'lib, voqealar oilaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Shu sababli “Heungbu va Nolbu” ertagida ijtimoiy-axloqiy mazmun nisbatan aniqroq seziladi.

Tahlillar natijasida har ikkala ertakda xalqning ma'naviy idealini ifodalovchi umumiy jihatlar mavjudligi kuzatildi. Ijobiy qahramonlarning halol, sabrli va mehribon inson sifatida tasvirlanishi xalqning axloqiy mezonlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, ertaklarda boylik yoki mavqedan ko'ra insoniy fazilatlarining ustun qo'yilishi xalqona dunyoqarashning ahamiyatli belgilaridan biri hisoblanadi.

Mazkur ertaklarning madaniy ahamiyati ham katta. Ular orqali xalqning urf-odatlarini, oilaviy qarashlarini va ijtimoiy munosabatlari avloddan avlodga yetkaziladi. O'zbek ertagida mehnat va sabr qadri ulug'lansa, koreys ertagida saxovat va oilaviy birdamlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa xalq ertaklarining milliy mentalitetni saqlashdagi salmoqli rolini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, “Zumrad va Qimmat” hamda “Heungbu va Nolbu” ertaklari umumiy axloqiy asosga ega bo'lsa-da, ularning poetik talqini va madaniy mazmunida har bir xalqning milliy o'ziga xosligi aks etadi. Shu jihatdan ushbu ertaklar o'zbek va koreys xalqining ma'naviy dunyosini o'rganishda ahamiyatli folklor manbasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**I. O‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlar**

1. Афзалов М. Ўзбек халқ оғзаки ижоди ҳақида. — Тошкент: Фан, 1964. — 220 б.
2. Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. — Тошкент: Ўқитувчи, 1990. — 304 б.
3. Жўраев М. Фольклор ва этнография. — Тошкент: Университет, 2004. — 168 б.
4. Жабборов И. Ўзбек халқ маданияти ва фольклори. — Тошкент: Фан, 2006. — 198 б.
5. Каримов Ҳ. Ўзбек фольклорининг назарий масалалари. — Тошкент: Фан, 2011. — 240 б.
6. Мирзаев Т. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. — Тошкент: Фан, 1979. — 216 б.